



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

G'afurov I.A.

RESPUBLIKAMIZDA BUNYODKORLIK ISHLARI SAMARADORLIGI HAMDA QURILISH SOHASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurilish, maxsus qurilish, xarajatlar, qurilish ishlari, ulardan foydalanish samaradorligi va uning davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi jarayonlari va xarajatlarni hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha tahlil ma'lumotlari keltirib o'tilgan.

Аннотация. В данной статье представлено данное анализа строительства, затрат, строительно-монтажных работ, эффективности их использования и процессов ее поддержки государством и особенности учета затрат.

Annotation. This article provides analytical data on construction, special construction, costs, construction works, the efficiency of their use and the processes of its support by the state, as well as the specific features of cost accounting.

Kalit so'zlar: Qurilish, maxsus qurilish, xarajatlar, yalpi ichki mahsulot, sanoat, balans, moliyaviy natijalar hisobi, iqtisodiy tahlil.

Ключевое слова: Строительство, затраты, валовой внутренний продукт, промышленность, баланс, учет финансовых результатов, экономический анализ.

Keywords: Construction, special construction, costs, gross domestic product, industry, balance sheet, accounting of financial results, economic analysis.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyoti tarmoqlari qatorida qurilish tarmog'i nafaqat iqtisodiyotning asosiy fondlarini yaratuvchi uchastkasi sifatida, balki mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarni hamda turli xususiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy sohadagi dolzarb vazifalarni amalga oshirishda muhim o'rin va ahamiyatga egadir (demografik tuzilma va uning o'zgaruvchanligi, qishloq aholisining yuqori darajadaliigi hamda uy-joy va ijtimoiy-madaniy-maishiy ob'yektlar bilan kam ta'minlanganligi, ichki infratuzilma, transport va kommunikatsiya qurilishlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalar).



Material va metodlar. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasi YaIM hajmi joriy narxlarda 734587,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020 yilning mos davriga nisbatan 7,4 % ga o'sdi.

YaIMning o'sishiga sanoat tarmog'i eng katta hissa qo'shdi, u 8,7 % ga o'sdi. Sanoat tarmog'ining o'sishi hisobiga YaIMning 2,2f.p. ga o'sishi ta'minlandi.

Qurilish ishlari hajmining o'sishi 6,8 % ni tashkil etdi. Qurilish tarmog'ining YaIM o'sishiga ijobiy hissasi 0,4 f.p.ni tashkil etdi.

2021 yilning yanvar-dekabr oylarida 107447,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 106,8 %ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 29685,6 mlrd. so'm yoki 27,6% yirik korxonalar va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 56357,6 mlrd. so'm yoki 52,5%, norasmiy sektor sub'ektlari tomonidan 21404,3 mlrd. so'm yoki 19,9% bajarildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish tarmog'ining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 6,7 % ni tashkil etdi va ushbu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan 0,4 foiz punktga oshdi.

Mamlakat milliy iqtisodiyoti moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari va bozor xizmat ko'rsatish sohasidan tarkib topadi. Qurilish moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari qatorida (sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin) uchinchi o'rinda turadi.

Qurilish tarmog'i mahsuloti bo'lib, mamlakatning xo'jalik majmuasi asosiy fondlarini tashkil qiluvchi qurilishi tugallangan va ekspluatatsiyaga topshirilgan zavod va fabrikalar, temir va avtomobil yo'llari, elektr stansiyalar, irrigatsiya kanallari, portlar, uy-joylar va boshqa ob'yektlar hisoblanadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik sub'ektlarida qurilish sohasini o'rganganda eng avvalo qurilish so'zini ma'nosini keng ma'noda o'rganish va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Qurilish – mamlakat xalq xo'jaligining asosiy sohasidan biri bo'lib, asosiy joriy fondlarning yangidan bunyod etilishi, kengaytirilishi va qayta konstruksiyalanishini ta'minlaydi. Kapital qurilish barcha ishlab chiqarish sohaslarining rivojlanishi, ijtimoiy mehnat unumdorligi ortishida, xalq moddiy farovonligining ortishida va madaniy turmush darajasining yuksalishida muhim o'rin tutadi.

Qurilish – bu mamlakat xalq xo'jaligining yirik sohasi bo'lib, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va xalqning farovonlik darajasi o'sishida yetakchi o'rin tutadi. Qurilishda bir necha yuz minglab kishilar faoliyat olib borib, ular bevosita sanoat miqyosidagi inshootlar, fuqarolik inshootlari va boshqa turdagi ob'yektlarda, shuningdek qurilish tashkilotlari va korxonalarida faoliyat yuritishadi. Bu o'rinda qurilishning asosiy ishtirokchilariga *yuridik* va *jismoniy* shaxslar kiradi, ya'ni bu tarkib har qanday davlatga tegishli, jamoaviy, xususiy tashkilotlar va yakka tartibda faoliyat olib boruvchilardan iborat hisoblanadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida tobora rivojlanib borayotgan mamlakatimizda qurilish ishlariga juda katta e'tibor berilmoqda, qolaversa rivojlanish bilan bir qatorda mamlakatimiz aholisi ham kun sayin ortib bormoqda. Bu barcha sohalarda jumladan: qurilish sohasida ham juda katta ehtiyojlarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, qurilish sohasi iqtisodiyotimizning to'la ishga solinmagan, katta salohiyatga ega yo'nalishlaridan biri. Kelgusi yilda qurilish sohasini isloh qilish va jadal rivojlantirish asosiy vazifalardan biri bo'ladi. Biz qurilish-pudrat tashkilotlari va quruvchilarning zamonaviy avlodini yaratish ustida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Shu maqsadda qurilish sohasini 2030 yilgacha innovatsion rivojlantirish dasturi ishlab chiqiladi.

Shundan song bir qancha qaror va farmonlar qabul qilinib qurilish sohasida juda katta o'zgarishlar ro'y berdi va sezilarli darajada yutuqlarga erishilmoqda. Bundan tashqari Prezidentimiz 2020 yil 27 noyabr kuni Qurilish tarmog'ini yanada takomillashtirish, arxitektura

hamda qurilish organlari va muassasalarini izchil rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirish, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ta'minlash, sohaga raqamli texnologiyalarni ilg'or joriy etish maqsadida: "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6119-son farmonini imzoladi. Bu esa mamlakatimiz rivojlanishi va aholi farovonligi yo'lida qurilish sohasida olib borilayotgan ishlarning jadal rivojlanishi unga kata e'tibor berilayotganligidan dalolatdir.

Shu sababli haqiqatdan ham respublikamizda keying yillarda qurilish sohasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda, buni quyidagi jadvaldan ham ko'rish mumkin.

Respublikamizda keying yillarda amalga oshirilgan qurilish ishlari to'g'risida MA'LUMOT
(mlrd.so'm)

TG'r	Hududlar	Yillar			
		2018	2019	2020	2021
1	O'zbekiston Respublikasi	51129,3	71156,5	88130,3	107447,6
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2182,7	3315,4	3992,5	4480,6
3	Andijon	2819,5	3539,1	4673,0	5657,8
4	Buxoro	3581,2	4368,1	5659,8	7401,1
5	Jizzax	1564,3	2510,6	2715,0	3085,4
6	Qashqadaryo	3701,1	4365,3	4832,6	6336,6
7	Navoiy	2280,8	3464,0	3944,7	5155,5
8	Namangan	2257,6	3471,0	4678,2	5556,7
9	Samarqand	3299,0	4527,2	5755,3	7385,7
10	Surxondaryo	2879,7	3979,7	4774,7	5868,4
11	Sirdaryo	1001,1	1926,2	2407,6	2708,8
12	Toshkent	3006,7	5594,1	7102,6	9401,2
13	Farg'ona	2942,7	4162,8	5473,9	6993,7
14	Xorazm	1878,3	2496,8	2856,8	4228,5
15	Toshkent sh	10870,7	16256,9	19215,4	26535,3

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, O'zbekiston Respublikasida jami 107 447,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 106,8 % ni tashkil etdi.

Respublikamizda bajarilayotgan qurilish montaj ishlari 2018yilda 51129,3 mlrd. somni tashkil etib, ulardan asosiy qismini Toshkent shahri-10870,7mlrd so'm, Qashqadaryo viloyati – 3701,1 mlrd som, Buxoro viloyati 3581,2 mlrd so'm, hissasiga to'g'ri kelayapti, 2019 yil respublikamizda qurilish montaj ishlari 16256,9 mlrd so'mni tashkil etgan bu bajarilgan qurilish montaj ishlari asosan Toshkent shahri-16256,9 mlrd so'm, Toshkent viloyati 5594,1mlrd so'm, Samarqand viloyati 4527,2 mlrd so'mni tashkil qilgan, 2020 yilda bu ko'rsatkichlar respublika bo'yicha 88130,3 mlrd so'mni tashkil etib, ularning asosiy qismi Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Samarqand viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. 2021 yilda qurilish montaj ishlarining eng kata qismi, Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda 26535,3 mlrd. so'm (jami qurilish ishlarining 24,7%), Toshkent viloyati 9401,2 mlrd. so'm (8,7%), Buxoro 7401,1 mlrd. so'm (6,9%), Samarqand 7385,7 mlrd. so'm (6,8%)ni tashkil qilgan.



Eng past ko'rsatkich esa Sirdaryo 2708,8 mlrd. so'm (2,5%) va Jizzax 3085,4 mlrd. so'm (2,8%) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Respublikamizda qurilish montaj ishlari yildan-yilga o'sib borayotganligini jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin: 2021 yilda qurilish montaj ishlari 107447,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, 2018 yilga nisbatan (51129,3 mlrd so'm) 2,1 baravarga, 2019 yilga nisbatan 1,5 baravarga, 2020 yilga nisbatan esa 1,2 baravarga oshgan. Bundan ko'rish mumkinki respublikamizda qurilish sohasiga yil sayin qaratilayotgan e'tibor oshib bormoqda.

Адабиётлар руйхати

1. O'zbekistan Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Uzbekistan Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha xdrakatlar strategiyasi to'risida"gi farmoni, 2017-yil 7-fevral, № PF-4947.
2. Urazov K.B. Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Ma'ruza matnlari. Samarqand 2007 y.
3. Semenixin V.V. Stroitelstvo.. M.: Nalogovo'y vestnik. - 2012. - 303 s.
4. A.S.Sultonov, Z.Ya.Xudoyberganov, S.ADuchkorova "Suv xujaligi iqtisodiyoti" - T. Shark nashriyoti, 2007 y
5. Axmedov U.Q «Suv xo'jaligi qurilishi iqtisodiyoti» Toshkent 2020
6. Internet saytlari: www.stat.uz, www.lex.uz, <https://www.mineconomy.uz>, <https://www.mc.uz>